

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESININ
BIYLIĞI**

2023 - yil 15 - dekabr

262-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining

32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-79-sonli Farmoyishi haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-79-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-79-sonli farmoyishi ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoyishi bilan quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda - Respublika komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish dasturi (keyingi o'rinlarda - Dastur) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

b) Ushbu farmoyishning ijrosi bilan bog'liq xarajatlar Davlat budjetidan Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga ajratilgan mablag'lar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tegishli mahalliy budjetlarining qo'shimcha mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik hayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar

hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita)si 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha Dastur 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tashkiliy qo'mita:

Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (keyingi o'rinlarda - Qurolli Kuchlar) tashkil etilganligining 32 yilligi (keyingi o'rinlarda - bayram) shahar va tumanlar markazlarida keng nishonlanishini ta'minlasin;

barcha hududlarda Dastur doirasidagi ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va sport tadbirlarini samarali tashkil etish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan hamda xalqaro tanlov va musobaqalarda munosib ishtirok etgan harbiy xizmatchilar va sportchilardan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etsin;

bayram arafasida hududlardagi tashqi reklama obyektlariga (prizmatronlar, bilbordlar, videoekranlar, elektron displeylar va boshqalar) bayram mavzusiga mos videolavhalar va boshqa targ'ibot materiallari bepul joylashtirilishini ta'minlasin;

Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan shahar va tumanlardagi hududiy tashkiliy qo'mitalarning faoliyatini muvofiqlashtirib borsin.

5. Shimoli-g'arbiy harbiy okrugi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bayram tadbirlarini ko'tarinki ruhda nishonlash maqsadida quyidagilarga alohida e'tibor qaratsin:

barcha mahallalarda, ta'lim va mehnat jamoalarida, harbiy qism va muassasalarda so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarning harbiy-jangovar qudratini oshirish hamda ma'naviy salohiyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar, Yangi O'zbekistonni barpo etishda tinchlik va osoyishtalikning ahamiyatini aniq misollar orqali yetkazishga qaratilgan ma'rifiy uchrashuvlar hamda davra suhbatlarini o'tkazish;

harbiy xizmat nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda harbiy xizmat o'tash sharoitlarini yaxshilash, qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar joriy etish bo'yicha qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmunini, shuningdek, **“Xalq va armiya - bir tanu bir jon!”** tamoyilining mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a'zolari, xizmat burchini bajarish chog'ida nogiron bo'lib qolgan harbiylar, e'tibor hamda ko'makka muhtoj Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, shuningdek, Qurolli Kuchlar faxriylariga moddiy hamda ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish.

6. Nukus shahri va tumanlar hokimliklari:

Dasturda belgilangan tadbirlarni joylarda yuksak saviyada o'tkazish bo'yicha shahar va tumanlarda hududiy tashkiliy qo'mitalarni tuzsin hamda ularga shaxsan rahbarlik qilsin;

ko'chalar, maydonlar va tantanali tadbirlar o'tkaziladigan joylarning bayramga bag'ishlangan plakat va stendlar bilan bezatilishi, shuningdek, aholi gavjum joylarda, madaniyat maskanlarida harbiy-vatanparvarlik mavzusiga doir ko'rgazma va ekspozitsiyalar tayyorlanishini tashkil etsin;

bayram dasturlarini tayyorlash uchun ommaviy tomoshalar bo'yicha yuksak mahorat va tajribaga ega bo'lgan ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, madaniyat va san'at arboblari, iste'dodli yosh ijrochilar, harbiy ansambl va orkestrlardan iborat ijodiy guruhlarni shartnoma asosida jalb etish choralari ko'rsin;

bayram arafasida davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan, respublika ko'rik-tanlovlarning g'oliblari hamda jangovar-xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilarni taqdirlash bo'yicha tantanali tadbirlarni tashkil etsin;

harbiy qism va muassasalar, ta'lim tashkilotlari hamda mahallalarda armiya hamda xalq yakdilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hamda sport musobaqalarini o'tkazsin;

harbiy xizmatchi va xodimlar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni o'tkazish uchun zarur mablag'lar ajratish bo'yicha takliflar kiritsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) va Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (M.Yusupov) tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va aholi xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan tegishli choralarni ko‘rsin.

8. Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasi (Q.Bekbao‘liev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Bekmuratov) va boshqa ommaviy axborot vositalariga bayramga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni batafsil yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 15-dekabrda
262-13-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining

**32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish
va o'tkazish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy tashkiliy qo'mitasi**

TARKIBI

1.	F.Ermanov	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, Tashkiliy qo'mita raisi
2.	U.Dusmatov	-	ShG'HO qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari, Tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari
3.	M.Axmedova	-	Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari – Oila va xotin qizlar qo'mitasi raisi, Tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari
4.	R.Zarikeev	-	Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari – Turizm va madaniy meros vaziri, Tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari
Tashkiliy qo'mita a'zolari			
5.	E.Tixonov	-	Davlat xavfsizlik xizmati QR bo'yicha boshqarmasi boshlig'i
6.	B.Torebekov	-	Ichki ishlar vaziri
7.	M.Yusupov	-	Milliy gvardiyaning QR bo'yicha boshqarmasi boshlig'i
8.	I.Kazakov	-	Bojxona boshqarmasi boshlig'i
9.	A.Davletov	-	Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i
10.	B.Temirbaev	-	Madaniyat vaziri
11.	T.Baekiev	-	Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy shu'basi boshlig'i
12.	G.Kojabaeva	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
13.	M.Qurbanov	-	Sog'liqni saqlash vaziri
14.	S.Turmanov	-	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri
15.	A.Allanazarov	-	Yoshlar siyosati va sport vaziri
16.	P.Maxsetbaev	-	Yoshlar ishlari agentligi QR boshqarmasi boshlig'i
17.	T.Abdijabbarov	-	"Nuroni" jamg'armasi QR bo'limi boshlig'i
18.	K.Karimov	-	Yozuvchilar uyushmasi boshlig'i
19.	B.Nizamatdinov	-	"Qoraqalpoq-kino" agentligi direktori
20.	Q.Bekbauliev	-	Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi direktori
21.	Lavozimi bo'yicha	-	Fanlar Akademiyasi QR bo'limi boshlig'i
22.	U.Utegenova	-	Badiiy akademiya QR bo'limi boshlig'i
23.	N.Muxamatdinov	-	Bastakorlar uyushmasi raisi
24.	U.Jalmenov	-	Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi
25.	T.Atamuratov	-	Ma'naviyat va ma'rifat markazi QR bo'limi boshlig'i
26.	A.Bekmuratov	-	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i
27.	K.Reymov	-	Jurnalistlar uyushmasi raisi
28.	Q.Razbekov	-	MK "Vatanparvar" tashkiloti rahbari

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 15-dekabrda
262-13-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha Dastur

№	Tadbirlar nomi	Bajarish mudati	Mas'ullar
I. Tashkiliy-amaliy tadbirlar			
1.	Nukus shahri va tumanlar hokimliklarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha hududiy tashkiliy qo'mitalar tuzish.	2023-yil 20-dekabr	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Madaniyat vazirligi, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar
2.	Nukus shahridagi "Berdaq" nomidagi davlat akademik musiqali teatri konsert zali, saxnasi hamda ularga tutash hududlarni bayramona bezatish, shuningdek, taniqli estrada, teatr, kino artistlari, ijodiy jamoalar ishtirokida bayram konsert dasturlarini tayyorlash.	Tantanali tadbirlarini o'tkazish davrida	Tashkiliy qo'mita, Madaniyat vazirligi, Nukus shahri hokimligi, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar
3.	Nukus shahridagi "Berdaq" nomidagi davlat akademik musiqali teatri konsert zalida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilish va bayram konsertini o'tkazish.		
4.	"Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida shahar va tumanlar markazlarini, ko'chalarni mavzuga doir ko'rgazmali tapg'ibot-tashviqot vositalari bilan bezash.	2023-yil 25-dekabr	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, ShG'HO, IIV, DXX QR bo'yicha boshqarmasi, FVB, QR Bojxona boshqarmasi, Milliy gvardiya QR bo'yicha boshqarmasi, vazirliklar va idoralar hamda jamoatchilik tashkilotlari rahbariyati tomonidan - Nukus shahridagi "Motamsaro ona" manumenti poyiga gulchambarlar qo'yish	Alohida reja asosida	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar

II. Axborot-tashviqot yo‘nalishidagi tadbirlar			
6.	Markaziy ko‘chalar, mahallalar, hiyobonlar, madaniyat va istirohat bog‘larida Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan plakatlar va bannerlar o‘rnatish, LED ekranlarda mavzuga oid foto va videomateriallar joylashtirish.	2023-yil 20-dekabr 2024-yil 20-yanvar	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Tasviriy oyna ijodiy uyushmasi, ShG‘HO
III. Aholi o‘rtasida o‘tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik va ma‘naviy-ahloqiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tushuntirish ishlari			
7.	Olis hududlarda istiqomat qiluvchi aholi, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari uchun ijodiy birlashmalarning musiqali chiqishlari, teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari va spektakl namoyishlarini tashkil etish.	2024-yil davomida	Madaniyat vazirligi, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
8.	Olis va chekka garnizonlarda Mudofaa vazirligi Ma‘naviyat va madaniyat departamenti huzuridagi “Turon” harbiy teatri davlat muassasasining vatanparvarlik mavzusidagi teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari va spektakllarini tashkil etish.	Alohida reja asosida	ShG‘HO, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
9.	Keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar bilan fan, ta‘lim, madaniyat, san‘at va ijtimoiy soha namoyandalari ishtirokida “Vatanga xizmat - oliy fazilat” mavzusida seminarlar tashkil etish.	2023-yil 20-dekabr 2024-yil 20-yanvar	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
10.	Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarning ota-onalari ishtirokida Nukus shahri va tumanlarda “Askar onalarini sharaflaymiz” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazish.	2023-yil dekabr 2024-yil yanvar	Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi QR boshqarmasi, Ma‘naviyat-marifat markazi,
IV. Madaniy-ma‘rifiy va sport yo‘nalishidagi tadbirlar			
11.	Harbiy xizmatchilar bilan aholi o‘rtasida “Xalq va armiya - bir tanu bir jondir!” shiori ostida sportning ommaviy, texnik va amaliy turlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish.	2023-yil dekabr 2024-yil davomida	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, ShG‘HO, “Vatanparvar” tashkiloti
12.	«Eng ilg‘or serjant», «Eng ilg‘or guruh komandiri», «Eng ilg‘or vztvod komandiri», «Eng ilg‘or batalon komandiri», «Eng ilg‘or brigada komandiri» nominatsiyalari bo‘yicha o‘z kasbining ustasi tanlovining respublika bosqichi g‘oliblapini taqdirlash tadbirlarini o‘tkazish.	2024-yil 11-14 yanvar	Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi, Yoshlar ishlari agentligi
V. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy-huquqiy muhofazasiga yo‘naltirilgan tadbirlar			

13.	Harbiy shaharchalarda arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari hamda ko'chma savdo do'konlarini tashkil etish.	2023-yil 25-30 dekabr	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar
14.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlash arafasida yangi ijtimoiy va maishiy obyektlarning tantanali ochilish marosimlarini tashkil etish, ularni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2023-yil dekabr 2024-yil yanvar	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi idoralar, Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi